



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

MIKROMOLIYA TASHKILOTLARI VA LOMBARDLARNING MOLIYAVIY HOLATI ShARHI

2025-yil I chorak yakuni bo'yicha



Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning moliyaviy holati sharhi

Mazkur sharh 2025-yilning I chorak yakunlari bo'yicha mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning asosiy hamda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari, xususan aktivlari, majburiyatlari, kapital va daromadlilikida yuzaga kelgan asosiy tendensiyalarni izohlaydi.

I. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar infratuzilmalari


2025-yilning I choragi davomida mikromoliya xizmatlari bozorida yangi ishtirokchi sifatida **14 ta** mikromoliya tashkiloti, ularning **63 ta** filiallari (*41 ta mikromoliya tashkiloti va 22 ta lombardlar*) tashkil etilib, umumiy soni **206 ta**, shundan mikromoliya tashkilotlari **114 ta** (*filiallar soni 277 ta*) va lombardlar **92 taga** (*filiallar soni 93 ta*) yetdi.

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tarkibida chel el kapitali mavjud bo'lgan mikromoliya tashkilotlari soni o'tgan yilning I choragiga nisbatan 3 taga ortib, 2025-yilning I choragida **20 taga** (*mikromoliya tashkilotlari 12 ta va lombardlar 8 ta*) yetgan.


1-chizma

2-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar bosh ofislari soni



Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning filiallari soni





Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bunda, faoliyat yuritayotgan mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning eng ko'p qismi **Toshkent shahri** (**57 ta mikromoliya tashkiloti va 47 ta lombard**) va **Farg'ona** viloyati (**19 ta mikromoliya tashkiloti va 4 ta lombard**) hissasiga to'g'ri kelsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatlarida **1** tadan bosh ofislari joylashgan.

Mazkur tashkilotlar filiali dislokatsiya bo'yicha **Toshkent** shahrida lombardlarning **31 ta** filiali va mikromoliya tashkilotlarining **28 ta** filiali faoliyat yuritisa, **Sirdaryo** viloyatida mazkur ko'rsatkich mos ravishda jami **2 ta** va **8 tani** tashkil etadi.

3-chizma

4-chizma



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

II. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar kreditlash amaliyotlari va ularning segmentatsiyasi


Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan 2025-yilning yanvar-mart oylarida jami **6,2 trln so'm** miqdorida kreditlar ajratilib, kreditlash miqdori o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,2 barobarga** oshgan. Bunda, kreditlashning **90 foizi** (**5,6 trln so'mi**) mikromoliya tashkilotlari va **10 foizi** (**0,6 trln so'mi**) lombardlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Kreditlash amaliyotlarining o'sish sur'ati mikromoliya tashkilotlarida **2,3 barobar** va lombardlarda **1,4 barobarni** tashkil etgan.

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ajratilgan kreditlarning **6,1 trln** so'mi yoki **97 foizi jismoniy shaxslarga** va **186 mlrd** so'mi yoki **3 foizi yuridik shaxslarga** ajratilgan kreditlar hissasiga to'g'ri keladi.

5-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ajratilgan kreditlar miqdori




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Ajratilgan kreditlar segmentatsiyasida 2025-yilning yanvar-mart oylari davomida ajratilgan **onlayn** kreditlarning jami mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ajratilgan kreditlardagi ulushi **59 foizni** tashkil etgan etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **26 foiz** bandga ortgan.

Onlayn kreditlash hajmining keskin oshishi jismoniy shaxslar tomonidan **“Uzum Market”** elektron platformasi, **“Uzum Tezkor”** yetkazib berish xizmati va **“Uzum Nasiya”**ga ulangan boshqa savdo shahobchalardan tovar xom-ashyo sotib olishda, **“Shaffof-Moliya”** (1,2 trln so'm) va **“TezCoin”** (2,4 trln so'm) mikromoliya tashkilotlari tomonidan onlayn kreditlar ajratilishi bilan izohlanadi.

Ajratilgan onlayn va oflayn kreditlarning segmentatsiyasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mikromoliya tashkilotlarida islomiy moliyalashtirishga oid “murobaha”, “islomiy ijara”, “salam”, “mushoraka” va “muzoraba” xizmatlari ko'rsatilishiga ruxsat etilgan.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida **415 mln so'mlik** islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko'rsatilgan bo'lib, ushbu ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlarning barchasi “**murobaha**” xizmatiga to'g'ri keladi.


“Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida”gi Nizom (ro'yxat raqami 3536, 2024-yil 26-iyul) qabul qilingandan so'ng, mikromoliya tashkilotlariga islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatishga ruxsat berildi.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar miqdorlari bo'yicha segmentatsiyasida 2025-yilning yanvar-mart oylarida ajratilgan kreditlarning **58 foizi 10 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlarni, **10-20 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **16 foizni**, **20-50 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **15 foizni** va **50-100 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **11 foizni** tashkil etgan.

O'tgan bir yilda **10 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar **15 foizga**, **10-20 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar **2 foizga** oshgan bo'lsa, **20-50 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar **12 foizga** va **50-100 mln so'm** miqdoridagi kreditlarda **5 foizga** kamaygan.

7-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning miqdorlar bo'yicha taqsimlanishi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar miqdorlari segmentatsiyasida **100-200 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **57 foizni**, **200-300 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **23 foizni**, **300 mln so'mdan yuqori** bo'lgan kreditlar ulushi **8 foizni**, **50-100 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **7 foizni** va **50 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **5 foizni** tashkil etgan.

2024-yilning I choragidan joriy yilning hisobot sanasiga qadar **300 mln so'mdan yuqori** bo'lgan kreditlar **4 foiz** bandga hamda **200-300 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar **1 foiz** bandga oshgan bo'lsa, **50-100 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar **4 foiz** bandga va **50 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **1 foiz** bandga kamaygan.

Shuningdek, **100-200 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlarning jami yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlardagi ulushi o'zgarmagan.

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning miqdorlar bo'yicha taqsimlanishi




Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

III. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

3.1. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning aktivlari qoldig'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,7 barobarga** ortib, 2025-yil 1-aprel holatiga **9,6 trln so'm** doirasida shakllangan. Bunda, **mikromoliya tashkilotlarining** aktivlari **1,8 barobarga** (3,9 trln so'mga) o'sib, **9,1 trln so'mga** va **lombardlar** aktivlari **1,5 barobarga** (177 mlrd so'mga) ko'payib, **551 mlrd so'mga** yetgan.

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar aktivlari miqdori




Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar jami aktivlarining **99 foizi** (9 trln so'mi) kredit qo'yimalari hissasiga to'g'ri kelib, aktivlar o'sishi asosan kredit qo'yimalarining **1,8 barobarga**, xususan mikromoliya tashkilotlarida **1,8 barobarga**, lombardlarda **1,4 barobarga** o'sishi hisobiga yuzaga kelgan. Natijada, 2025-yilning I chorak yakunida mikromoliya tashkilotlari va lombardlar kreditlarining barcha kredit tashkilotlar umumiy kredit qoldig'idagi ulushi **1,6 foizga** yetdi.

10-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar kredit qo'yimalari dinamikasi




Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan **jismoniy shaxslarga** ajratilgan **mikroqarzlar** qoldig'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,8 barobarga** ortib, **8,5 trln so'mga**, **iste'mol** kreditlari hajmi esa **1,7 barobarga** oshib, **10,4 mlrd so'mga** yetgan bo'lsa, **tadbirkorlik subyektlariga** ajratilgan **mikrokreditlar** qoldig'i qariyb **1,9 barobarga** ko'payib, **415,3 mlrd so'mga** hamda faktoring xizmatlari hajmi **8 barobaraga** oshib, **86,6 mlrd so'mga** yetgan bo'lsa, lizing xizmatlari hajmi **10 foizga** kamayib, **8 mlrd so'mni** tashil etgan.


**Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ajratilgan
kredit turlari qoldig'i (mlrd so'm)**

2024-yil 1-aprel holatiga



■ mikroqarz
■ faktoring
■ iste'mol kreditlari
■ mikro kredit
■ lizing

2025-yil 1-aprel holatiga



■ mikroqarz
■ faktoring
■ iste'mol kreditlari
■ mikro kredit
■ lizing

Mikromoliya tashkilotlarida muammoli kreditlar (NPL)


2024-yilning I choragidan hisobot davri sanasiga **0,3 foiz** bandga oshib, **2,4 foizni** (*qoldig'i 206 mlrd so'm*) tashkil etadi.

Ushbu holat o'tgan davr davomida "shubhali" kreditlar **2,4 barobarga** (*106 mlrd so'mga*) oshganligi va "umidsiz" kreditlar **4 foizga** (*1 mlrd so'mga*) kamayganligi bilan izohlanadi.

Ma'lumot uchun: mikromoliya tashkilotlarida muammoli kreditlar (NPL) "shubhali" va "umidsiz" kreditlardan tashkil topgan.

Muammoli kreditlarni qoplash koeffitsiyenti (NPL coverage ratio) o'tgan yilning mos davriga nisbatan **13 foiz** bandga kamaygan holda, 2025-yil I choragi yakuni bo'yicha **56 foizni** tashkil etgan.

12-chizma




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

3.2. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar majburiyatlari

2025-yilning I chorak yakunida o'tgan yilning mos davriga nisbatan mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning jami majburiyatlari **2 barobarga** (3,3 trln so'mga) oshib, **6,6 trln** so'mni tashkil etgan. Xususan, **mikromoliya tashkilotlarining** majburiyatlari **2 barobarga** (3,3 trln so'mga) oshib, **6,5 trln** so'mni, **lombardlarda** esa **1,3 barobarga** (22 mlrd so'mga) ko'payib, **92 mlrd** so'mni tashkil etgan.

13-chizma




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mikromoliya tashkilotlarining jami majburiyatlari 2025-yilning 1-aprel holatiga o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2 barobarga** oshgan holda **6,5 trln so'mni** tashkil etib, uning **17 foizi** (1083 mlrd so'm) ta'sischi, **41 foizi** (2677 mlrd so'm) tijorat banklari, **5 foizi** (335 mlrd so'm) xalqaro moliya institutlari, **21 foizi** (1342 mlrd so'm) mahalliy kompaniyalardan, **2 foizi** (125 mlrd so'm) obligatsiyalarni joylashtirish va **14 foizi** (937 mlrd so'm) boshqa majburiyatlar hisobidan shakllangan.

Bunda, jalb etilgan mablag'larda ta'sischi mablag'lari **2,2 barobar** (586 mlrd so'm), tijorat banklari resurslari **1,8 barobar** (1 164 mlrd so'm), xalqaro moliya institutlari mablag'lari **1,4 barobar** (100 mlrd so'm), mahalliy kompaniyalardan jalb etilgan mablag'lar **4,7 barobar** (1058 mlrd so'm) va obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag'lar **3 barobarga** (84 mlrd so'm) oshgan.

14-chizma

Mikromoliya tashkilotlari majburiyatlar tarkibi




Lombardlarning jami majburiyatlari 2025-yil 1-aprel holatiga o'tgan yilning mos davriga nisbatan **31 foizga** oshgan holda **92 mlrd so'mni** tashkil etib, uning **53 foizi** (48 mlrd so'm) ta'sischilar, **20 foizi** (19 mlrd so'm) tijorat banklaridan jalb etilgan mablag'lar va **27 foizi** (24 mlrd so'm) boshqa majburiyatlar hisobidan shakllangan.

Bunda, lombardlar jami majburiyatlari tarkibida ta'sischilar mablag'lari **1,7 barobarga** (19 mlrd so'm) va tijorat banklari resurslari **2 barobarga** (10 mlrd so'm) oshgan bo'lsa, boshqa majburiyatlari **25 foizga** (8 mlrd so'm) kamaygan.

15-chizma

Lombardlar majburiyatlari tarkibi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


3.3. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar kapitali

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar jami kapitali o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,4 barobarga** (808 mlrd so'm) ko'payib, 2025-yil 1-aprel holatiga **3 trln** so'mga yetgan. Bunda, **mikromoliya tashkilotlarining** jami kapitali **1,3 barobarga** (653 mlrd so'm) oshib, **2,6 trln** so'mni va **lombardlarda** **1,5 barobarga** (155 mlrd so'm) o'sib, **460 mlrd** so'mni tashkil etgan.

Bunda, mikromoliya tashkilotlarining jami kapitali o'sishida ustav kapitalining **557,1 mlrd so'm** (63 foiz), joriy yil foydasi **49,1 mlrd so'm** (24 foiz), zaxira kapitali **55,2 mlrd so'mga** (91 foiz) oshishi hamda zaxira kapitali **8,7 mlrd so'mga** (1 foiz) kamayishi asosiy omillar bo'lgan bo'lsa, lombardlarda ustav kapitalining **60 mlrd so'm** (64 foiz), joriy yil foydasi **17,8 mlrd so'm** (44 foiz), taqsimlanmagan foyda **75,6 mlrd so'm** (47 foiz) hamda zaxira kapitali **1,9 mlrd so'mga** (17 foiz) o'sishi hisobiga yuzaga kelgan.

16-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar jami kapital dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shuningdek, 2025-yilning I choragida o'tgan yilning mos davriga nisbatan xorij kapitali ishtirokidagi mikromoliya tashkilotlarining ustav kapitali **2,5 barobarga** (123 mlrd so'm) va lombardlarda esa **3,8 barobarga** (49 mlrd so'm) oshgan.


17-chizma

**Ustav kapitalida xorij kapitali mavjud
mikromoliya tashkilotlari**



18-chizma

**Ustav kapitalida xorij kapitali mavjud
lombardlar**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


3.3.1. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar rentabellik ko'rsatkichlari

2025-yil yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning jami daromadlari **1,1 trln so'mni**, jami xarajatlari **755 mlrd so'mni** tashkil etib, jami **310 mlrd so'm** miqdorida sof foyda olingan.

Bunda, **mikromoliya tashkilotlarida** jami daromadlar **955 mlrd so'mni**, jami xarajatlar **703 mlrd so'mni** va sof foyda **252 mlrd so'mni** tashkil etgan bo'lsa, **lombardlarda** esa jami daromadlar **110 mlrd so'mni**, xarajatlar **52 mlrd so'mni** tashkil etib, **58 mlrd so'm** miqdorida sof foyda olingan.


Mikromoliya tashkilotlari jami xarajatlari tarkibida foizsiz xarajatlar **34 foizni**, operatsion xarajatlar **26 foizni** va foizli xarajatlar **40 foizni** tashkil etgan. **Lombardlar** jami xarajatlari tarkibida foizsiz xarajatlar **26 foizni**, operatsion xarajatlar **67 foizni** va foizli xarajatlar **7 foizni** tashkil etadi.

Mikromoliya tashkilotlarining kreditlardan olingan foizli daromadlarini jami daromadlardagi ulushi dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


Lombardlarning foizli daromadlarining jami daromaddagi ulushi dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mikromoliya tashkilotlari tomonidan mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali olinayotgan foizli daromadlarda ko'rsatilayotgan xizmatlarlar segmentatsiyasi ulushida mikroqarzlarning ulushi **97-99 foiz** oralig'ida shakllangan.

Mikromoliya tashkilotlarining foizli daromadlari tarkibidagi moliyaviy xizmat turlari bo'yicha daromadlari dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

3.3.2. Aktivlar va kapital rentabelligi

Mikromoliya tashkilotlarida aktivlar rentabellik ko'rsatkichi (ROA) 2024-yilning I choragiga nisbatan **0,6 foiz** bandga kamayib, tahlil sanasida **19,3 foizni** tashkil etgan.


Shuningdek, **kapital rentabellik ko'rsatkichi (ROE)** o'tgan yil mos davriga nisbatan **5,3 foiz** bandga kamayib, 2025-yilning I chorak yakuniy holatiga **39,5 foizga** yetgan.

Mazkur holat mikromoliya tashkilotlari sof foydasining aktivlar va kapital ko'rsatkichlari o'sish sur'atiga nisbatan nomutanosib ravishda o'sishi bilan izohlanadi.

Bunda, mikromoliya tashkilotlarining jami o'rtacha aktivlari va kapitali 2024-yilning mos davriga nisbatan 2025-yilning I chorak yakunida mos ravishda 1,8 barobar va 1,4 barobarga oshgan bo'lsa, sof foyda ushbu davrda 24 foizga oshgan.

22-chizma

Mikromoliya tashkilotlarining rentabellik ko'rsatkichlari dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shu bilan birga, joriy yilning 1-aprel holatiga **lombardlarda aktivlar rentabellik ko'rsatkichi (ROA) 55,2 foiz** va **kapital rentabellik ko'rsatkichi (ROE) 51,4 foizni** tashkil etib, ushbu ko'rsatkichlar 2024-yilning mos davridan 2025-yilning I chorak yakunlarigacha mos ravishda 55,2-59,2% va 51,2-53,5% foiz oralig'ida shakllangan.

23-chizma

Lombardlarning rentabellik ko'rsatkichlari dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari